



2023- yil yanvar-may oyi uchun  
dastlabki ma'lumot



## JIZZAX VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi bo'limi:  
(72) 221-51-26



## TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Respublikada bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-** yil yanvar-may oyida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **505494,1 ming AQSH** dollariga yetdi va **2022-** yilning yanvar-may oyiga nisbatan **231211,5 ming AQSH** dollariga yoki **84,3 %** ga ko'paydi.



## TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-may, ming AQSH dollari)



### Tashqi savdo aylanmasi

2023- y.: **505494,1** **+84,3 %**

(2022- y.: **274282,6**)



### Saldo

2023- y.: **- 350361,3**

(2022 y.: **- 92125,0**)



### Eksport

2023- y.: **77566,4** **-14,8 %**

(2022- y.: **91078,8**)



Tovarlar: **77348,8**



Xizmatlar: **217,6**



### Import

2023- y.: **427927,7** **+133,6 %**

(2022- y.: **183203,8**)



Tovarlar: **427927,7**



Xizmatlar: **0,0**











**Tashqi savdo aylanmasi** – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zahiralarga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.




TSAda eksport hajmi **77566,4** ming AQSH dollariga (**14,8 %** ga kamaydi) va import hajmi **427927,7** ming AQSH dollariga (**133,6 %** ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida **-350361,3** ming AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



### JIZZAX VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2023- yil yanvar-may, ming AQSH dollari)

<p><b>XXR</b></p> <p>TSA – 172853,6</p> <p>Eksport: 12501,0 Import: 160352,6</p> <p> 34,2 %</p>	<p><b>Koreya Respublikasi</b></p> <p>TSA – 161638,1</p> <p>Eksport: 0,0 Import: 161638,1</p> <p> 32,0 %</p>	<p><b>Chexiya</b></p> <p>TSA – 40337,2</p> <p>Eksport: 56,6 Import: 40280,6</p> <p> 8,0 %</p>	<p><b>Turkiya</b></p> <p>TSA – 32034,7</p> <p>Eksport: 18191,7 Import: 13843,0</p> <p> 6,3 %</p>	<p><b>Rossiya</b></p> <p>TSA – 29234,9</p> <p>Eksport: 20732,5 Import: 8502,4</p> <p> 5,8 %</p>
<p><b>Litva</b></p> <p>TSA – 16967,2</p> <p>Eksport: 113,2 Import: 16854,0</p> <p> 3,4 %</p>	<p><b>Qozog‘iston</b></p> <p>TSA – 13179,9</p> <p>Eksport: 7338,5 Import: 5841,4</p> <p> 2,6 %</p>	<p><b>Germaniya</b></p> <p>TSA – 5520,1</p> <p>Eksport: 32,4 Import: 5487,7</p> <p> 1,1 %</p>	<p><b>Eron</b></p> <p>TSA – 4937,7</p> <p>Eksport: 3301,7 Import: 1636,0</p> <p> 1,0 %</p>	<p><b>Italiya</b></p> <p>TSA – 4933,2</p> <p>Eksport: 2862,4 Import: 2070,8</p> <p> 1,0 %</p>

Jizzax viloyati jahonning **57** mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi XXRda (**34,2 %**), Koreya Respublikasida (**32,0 %**), Chexiya (**8,0 %**), Turkiyada (**6,3 %**), Rossiyada (**5,8 %**), Litvada (**3,4 %**), Qozog‘istonda (**2,6 %**) va Germaniyada (**1,1 %**) qayd etilgan.

 Shuningdek, qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko‘rish mumkin.

Xususan, Belarus, Moldova va Turkmaniston, Qirg‘iz Respublikasi va Qozog‘iston kabi qo‘shni davlatlar bilan TSAda so‘nggi yillarda katta o‘zgarishlar kuzatilyapti.

## TASHQI SAVDO PROFITSITI BO‘LGAN ASOSIY UCH DAVLAT (2023- yil yanvar-may, ming AQSH dollari)



Rossiya – 29234,9



Qozog‘iston – 13179,9



Qirg‘iz Respublikasi – 2626,7












Tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Xususan, Koreya Respublikasi, XXR va Turkiya, Litva, Rossiya va Qozog‘iston davlatlari shular jumlasidandir. Qolgan **17** ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



## JIZZAX VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-may, ming AQSH dollari)

Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
 <b>XXR</b>	<b>55090,8</b>	<b>56686,0</b>	<b>172853,6</b>
<i>Eksport</i>	22863,4	16013,9	12501,0
<i>Import</i>	32227,4	40672,1	160352,6
 <b>Koreya Respublikasi</b>	<b>22588,4</b>	<b>54076,6</b>	<b>161638,1</b>
<i>Eksport</i>	-	103,5	-
<i>Import</i>	22588,4	53973,1	161638,1
 <b>Chexiya</b>	<b>31,3</b>	<b>105,6</b>	<b>40337,2</b>
<i>Eksport</i>	-	-	56,6
<i>Import</i>	31,3	105,6	40280,6
 <b>Turkiya</b>	<b>23341,8</b>	<b>45438,6</b>	<b>32034,7</b>
<i>Eksport</i>	14246,9	26831,3	18191,7
<i>Import</i>	9094,9	18607,3	13843,0
 <b>Rossiya</b>	<b>22803,6</b>	<b>36123,6</b>	<b>29234,9</b>
<i>Eksport</i>	16680,2	17588,3	20732,5
<i>Import</i>	6123,4	18535,3	8502,4
 <b>Litva</b>	<b>3536,5</b>	<b>23409,1</b>	<b>16967,2</b>
<i>Eksport</i>	-	59,9	113,2
<i>Import</i>	3536,5	23349,2	16854,0
 <b>Qozog'iston</b>	<b>11664,4</b>	<b>18498,0</b>	<b>13179,9</b>
<i>Eksport</i>	6154,3	11210,5	7338,5
<i>Import</i>	5510,0	7287,4	5841,4
 <b>Germaniya</b>	<b>1652,7</b>	<b>4679,1</b>	<b>5520,1</b>
<i>Eksport</i>	0,1	1543,5	32,4
<i>Import</i>	1652,6	3135,7	5487,7
 <b>Eron</b>	<b>1662,7</b>	<b>1736,1</b>	<b>4937,7</b>
<i>Eksport</i>	806,0	511,6	3301,7
<i>Import</i>	856,7	1224,4	1636,0
 <b>Italiya</b>	<b>2319,2</b>	<b>4262,3</b>	<b>4933,2</b>
<i>Eksport</i>	2272,0	3450,0	2862,4
<i>Import</i>	47,2	812,4	2070,8

Davlatlar		2021- y.	2022- y.	2023- y.
	<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>1595,6</b>	<b>4788,4</b>	<b>2626,7</b>
	<i>Eksport</i>	807,6	2057,8	2368,4
	<i>Import</i>	788,0	2730,6	258,3
	<b>Niderlandiya</b>	<b>23,2</b>	<b>5,6</b>	<b>2059,9</b>
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i>	23,2	5,6	2059,9
	<b>Daniya</b>	<b>-</b>	<b>8,1</b>	<b>1555,3</b>
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i>	-	8,1	1555,3
	<b>Hindiston</b>	<b>1585,6</b>	<b>1866,3</b>	<b>1379,2</b>
	<i>Eksport</i>	247,8	575,6	459,6
	<i>Import</i>	1337,7	1290,6	919,6
	<b>Shveysariya</b>	<b>245,7</b>	<b>2,4</b>	<b>1244,4</b>
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i>	245,7	2,4	1244,4
	<b>Tojikiston</b>	<b>2028,6</b>	<b>2854,4</b>	<b>1163,9</b>
	<i>Eksport</i>	1714,6	1295,2	1162,6
	<i>Import</i>	314,0	1559,2	1,3
	<b>Afg'oniston</b>	<b>1722,2</b>	<b>3478,2</b>	<b>1071,9</b>
	<i>Eksport</i>	1674,8	3162,4	821,6
	<i>Import</i>	47,4	315,7	250,4
	<b>Pokiston</b>	<b>3580,2</b>	<b>3229,9</b>	<b>1034,4</b>
	<i>Eksport</i>	3537,6	1136,7	1032,4
	<i>Import</i>	42,6	2093,2	2,0
	<b>Turkmaniston</b>	<b>131,7</b>	<b>616,4</b>	<b>1007,8</b>
	<i>Eksport</i>	27,5	286,7	288,3
	<i>Import</i>	104,2	329,7	719,5
	<b>Belarus</b>	<b>636,6</b>	<b>769,1</b>	<b>974,4</b>
	<i>Eksport</i>	46,7	154,8	329,4
	<i>Import</i>	589,8	614,3	644,9



## JIZZAX VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-may)\*

	Hajm ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>505494,2</b>	<b>184,3</b>	<b>100,0</b>
Jizzax sh.	153469,2	199,0	30,4
<i>hududlar:</i>			
Arnasoy	3993,9	70,3	0,8
Baxmal	5921,8	282,4	1,2
G'allaorol	227547,2	375,4	45,0
Sharof Rashidov	5770,0	54,3	1,1
Do'stlik	8178,3	66,3	1,6
Zomin	11864,4	69,1	2,3
Zarbdor	7730,5	43,5	1,5
Zafarobod	2431,9	18,0	0,5
Mirzacho'l	588,6	27,4	0,1
Paxtakor	9112,4	108,3	1,8
Forish	68333,6	156,4	13,5
Yangiobod	534,0	17,7	0,1

Eng yuqori hajm,  
ming AQSH dollari



G'allaorol 227547,2

Jizzax sh. 153469,2

Forish 68333,6

Eng quyi hajm,  
ming AQSH dollari



Yangiobod 534,0


Mirzacho'l 588,6

Zafarobod 2431,9

ViLOYAT tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni G'allaorol **45,0** % ulush bilan **227547,2** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Yangiobod **0,1** % ulush bilan **534,0** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, Jizzax viloyati viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

## JIZZAX VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-may, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-may oyida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **10,2** % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan **14,5** % ga kamayib, so'ngi uch yilda eng past ko'rsatkichni qayd etdi.



Viloyatning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2023- yilning yanvar-may oyida 2022- yilning mos davriga nisbatan **14,5** % ga ko'paydi va jami TSA'dagi ulushi **89,8** % ni tashkil etdi.



Jizzax viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-may holatiga ko'ra, **51598,0** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **35386,1** ming AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import **16211,9** ming AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



## JIZZAX VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-may, ming AQSH dollari)

### Rossiya

TSA – 29234,9  
Eksport – 20732,5  
Import – 8502,4



### Qozog'iston

TSA – 13179,9  
Eksport – 7338,5  
Import – 5841,4



### Qirg'iz Respublikasi

TSA – 2626,7  
Eksport – 2368,4  
Import – 258,3



### Tojikiston

TSA – 1163,9  
Eksport – 1162,6  
Import – 1,3



### Turkmaniston

TSA – 1007,8  
Eksport – 288,3  
Import – 719,5



### Belarus

TSA – 974,4  
Eksport – 329,5  
Import – 644,9



### Moldova

TSA – 362,4  
Eksport – 335,6  
Import – 26,8



### Ozarbajjon

TSA – 289,8  
Eksport – 235,8  
Import – 54,0



### Ukraina

TSA – 163,3  
Eksport – 0,0  
Import – 163,3



### Armaniston


TSA – 40,7  
Eksport – 40,7  
Import – 0,0



Jizzax viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (**56,7 %**), Qozog'iston (**25,5 %**) hamda Qirg'iz Respublikasi (**5,1 %**) davlatlari bilan qayd etildi.

## JIZZAX VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-may, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



Jizzax viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **48610,8** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **30809,6** ming AQSH dollari, import hajmi esa **15247,0** ming AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.




## JIZZAX VILOYATI EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'lishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar soni **105** taga yetdi va ular tomonidan **77566,4** ming AQSH dollari qiymatidagi (2022- yilning mos davriga nisbatan **14,8 %** ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



### XSST\* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-may, ulushi % da)



Jizzax viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasini (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni **XSST** bo'yicha kodlashtirish, **TIF TN** va **XSST** o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



## JIZZAX VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-may, yillar kesimida)

XSST tarkibi	ming AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
<b>Jami eksport</b>	<b>91078,7</b>	<b>77566,4</b>	<b>123,5</b>	<b>85,2</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	22609,5	9552,5	2,2 m.	42,3	24,8	12,3
Ichimliklar va tamaki	0,0	32,5	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	2194,9	3269,0	114,0	148,9	2,4	4,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	67,7	0,0	13,9 m.	0,0	0,1	0,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	3734,0	5201,8	137,9	139,3	4,1	6,7
Sanoat tovarlari	53537,3	4515,5	105,2	8,4	58,8	5,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	681,1	1117,9	146,3	164,1	0,7	1,4
Turli xil tayyor buyumlar	8083,7	10158,2	116,6	125,7	8,9	13,1
Boshqa tovarlar	0,0	43501,5	0,0	0,0	0,0	56,1
Xizmatlar	170,5	217,6	105,4	127,6	0,2	0,3

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **99,7 %** ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**5,8 %**), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**12,3 %**) va turli xil tayyor buyumlar (**13,1 %**) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



## JIZZAX VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-may )

XSST bo'limi nomi	ming AQSH dollari	2022- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Sabzavotlar va mevalar	7101,0	43,1
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	301,5	8,4
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	0,0	0,0
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	675,1	2,3 m.
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	27,8	0,0
Tamaki va tamaki mahsulotlari	4,7	0,0
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	485,5	40,2
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	4,1	147,1
Qog'oz massasi va makulatura	1620,0	0,0
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	228,9	3,3 m.
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0
Tabiiy yoki sun'iy gaz	0,0	0,0
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; mumlar; texnik aralashmalar va preparatlar	0,0	0,0
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Bo'yoqlar va taninlar	2370,6	136,7
Birlamchi bo'lmagan shakldagi plastmassalar	0,0	0,0
O'g'itlar	2195,5	133,1
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	280,2	21,7 m.


XSST bo'limi nomi	ming AQSH dollari	2022-yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	3041,9	6,2
Kauchuk mahsulotlar	3,0	130,9
Boshqa toifalarga kiritilmagan metall bo'lmagan minerallardan mahsulotlar	1388,9	31,3
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	73,9	40,6
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>		
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	1106,8	2,5 m.
Avtomobillar (shu jumladan havo transporti vositalari )	0,7	0,0
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	8,1	48,7
Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	0,0	0,0
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	9777,0	124,0
Har xil tayyor buyumlar	28,4	3,4 m.
Poyabzal	0,0	0,0
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	352,9	0,0

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2023- yilning yanvar-may oyida MDH mamlakatlariga **35386,1** ming AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **45,6 %** ini tashkil etdi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-may, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-may oyida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, Turkiya, XXR, Italiya, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi va Pokiston kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi **88,9 %** ni tashkil etdi.



### RESPUBLIKA EKSPORTIDA ASOSIY HANKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-may, % da)





## JIZZAX VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-may, yillar kesimida)*

Davlatlar	ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Rossiya	17588,3	20732,5	105,4	117,9	2	1
Turkiya	26831,3	18191,7	188,3	67,8	1	2
XXR	16013,9	12501,0	70,0	78,1	3	3
Qozog'iston	11210,5	7338,5	182,2	65,5	4	4
Eron	511,6	3301,7	63,5	6,4 m.	14	5
Italiya	3450,0	2862,4	151,8	83,0	5	6
Qirg'iz Respublikasi	2057,8	2368,4	2,5 m.	115,1	8	7
Tojikiston	1295,2	1162,6	75,5	89,8	10	8
Pokiston	1136,7	1032,4	32,1	90,8	11	9
Afg'oniston	3162,4	821,6	188,8	26,0	6	10
Polsha	2096,5	772,3	3,9 m.	36,8	7	11
Hindiston	575,6	459,6	2,3 m.	79,8	13	12
BAA	70,0	351,1	2,2 m.	5,0 m.	27	13
Moldova	74,1	335,6	0,0	4,5 m.	26	14
Belarus	154,8	329,4	3,3 m.	2,1 m.	23	15
Bolgariya	89,2	322,3	0,0	3,6 m.	25	16
Iroq	17,2	319,5	38,3	18,6 m.	32	17
Turkmaniston	286,7	288,3	10,4 m.	100,6	19	18
Gruziya	187,4	249,7	5,9 m.	133,3	21	19
Ozarbajjon	157,1	235,9	37,7	150,2	22	20





## JIZZAX VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2023- yil yanvar-may)\*

	Hajm ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>77566,4</b>	<b>85,2</b>	<b>100,0</b>
Jizzax sh.	38971,3	131,1	50,2
<i>hududlar:</i>			
Arnasoy	2240,0	172,1	2,9
Baxmal	2823,1	238,4	3,6
G'allaorol	2827,3	137,5	3,6
Sharof Rashidov	2632,0	55,8	3,4
Do'stlik	7353,8	88,2	9,5
Zomin	3957,1	113,3	5,1
Zarbdor	6353,8	46,3	8,2
Zafarobod	556,0	5,3	0,7
Mirzacho'l	118,8	6,8	0,2
Paxtakor	7141,2	94,8	9,2
Forish	2270,8	53,6	2,9
Yangiobod	302,8	12,1	0,4

Eng yuqori hajm,  
ming AQSH dollari



Jizzax sh. 38971,3

Do'stlik 7353,8

Paxtakor 7141,2

Eng quyi hajm,  
ming AQSH dollari



Mirzacho'l 118,8

Yangiobod 302,8

Zafarobod 556,0

Respublika eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Jizzax sh. **50,2** % bilan **38971,3** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Yangiobod **0,4** % bilan **302,8** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, Jizzax viloyati viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2023- yil yanvar-may )

Davlatlar	Tonna	ming AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Qozog'iston	67	2858,8	33,3
 Xitoy	3	1959,2	22,9
 Rossiya	30	1611,3	18,8
 Turkiya	6	386,1	4,5
 BAA	3	351,1	4,1
 Pokiston	5	345,4	4,0
 Iroq	4	319,5	3,7
 Ozarbayjon	5	207,1	2,4
 Eron	2	59,4	0,7
 Afg'oniston	2	35,2	0,5
 Boshqa davlatlar	10,0	439,5	5,1

\* qiymat ifodasidan



2023- yil yanvar-may oyida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qozog'istonga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **33,3** % i), bu ko'rsatkich Rossiyaga eksport hajmidan **1,8** barobar ko'p.



## JIZZAX VILOYATINING IMPORTI




2023- yilning yanvar-may oyida import hajmi **427927,7** ming AQSH dollarini va 2022- yilning mos davriga nisbatan **2,3** martani tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**68,7 %**), sanoat tovarlari (**2,4 %**) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (**2,6 %**) hisobiga to'g'ri keldi.



### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2023- yil yanvar-may, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar-may oyida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **244723,9** ming AQSH dollariga ko'paydi va **427927,7** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



## JIZZAX VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-may, yillar kesimida)

XSST tarkibi	ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
<b>Jami import</b>	<b>183203,8</b>	<b>427927,7</b>	<b>195,4</b>	<b>233,6</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	12780,6	6433,4	135,7	50,3	7,0	1,5
Ichimliklar va tamaki	0,0	1,3	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3562,7	3241,2	346,1	91,0	1,9	0,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1444,7	2867,6	227,5	198,5	0,8	0,7
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	168,9	1377,8	83,2	815,7	0,1	0,3
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	13181,9	11005,0	145,7	83,5	7,2	2,6
Sanoat tovarlari	17030,4	10217,3	169,6	60,0	9,3	2,4
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	131216,9	294035,4	226,2	224,1	71,6	68,7
Turli xil tayyor buyumlar	3817,9	3609,0	71,1	94,5	2,1	0,8
Boshqa tovarlar	0,0	95139,9	0,0	0,0	0,0	22,2
Xizmatlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0



## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-may )

XSST bo'limi nomi	ming AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	3970,6	103,6
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	7,8	0,0
Sabzavotlar va mevalar	592,1	17,1
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	0,0	0,0
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	0,0	0,0
Tamaki va tamaki mahsulotlari	1,3	0,0
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
Metall rudalari va metall parchalari	90,8	90,8
Probka va yog'och-taxtalar	235,9	2,6 m.
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	165,5	23,7
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	941,6	2,1 m.
Ko'mir, koks va briketlar	417,0	52,2
Gaz, tabiiy va sun'iy	0,0	0,0
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	1377,8	8,2 m.
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	0,0	0,0
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	2294,5	81,0
Birlamchi shakldagi plastmassalar	3743,0	87,7
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	943,7	52,1
Noorganik kimyo moddalari	210,5	24,7


XSST bo'limi nomi	ming AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
Cho'yan va po'lat	2285,9	31,2
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	766,2	52,7
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	4730,3	83,0
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	130,4	79,3
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalari</b>		
Boshqa transport uskunalari	207628,3	3,6 m.
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	11119,5	20,0
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	66138,6	7,7 m.
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	2752,2	63,0
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	1681,3	2,2 m.
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	1123,3	92,3
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	31,6	1,9
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	97,3	7,7 m.



2023- yil yanvar-may natijalariga ko'ra MDH mamlakatlari import ulushi **3,8 %** ni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **53,1 %** ga kamaydi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-may, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-may oyida **197** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Koreya Respublikasi, XXR, Litva, Turkiya, Qozog'iston va Rossiya) jami importning asosiy qismini tashkil etdi.



## RESPUBLIKA IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-may, % da)





## JIZZAX VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-may, yillar kesimida)

Davlatlar	ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Koreya Respublikasi	53973,1	161638,1	2,4 m.	3,0 m.	1	1
XXR	40672,1	160352,6	126,2	3,9 m.	2	2
Chexiya	105,6	40280,6	3,4 m.	381,5 m.	27	3
Litva	23349,2	16854,0	6,6 m.	72,2	3	4
Turkiya	18607,3	13843,0	2,0 m.	74,4	4	5
Rossiya	18535,3	8502,4	302,7	45,9	5	6
Qozog'iston	7287,4	5841,4	132,3	80,2	6	7
Germaniya	3135,7	5487,7	189,7	175,0	8	8
Itaiya	812,4	2070,8	17,2 m.	2,5 m.	14	9
Niderlandiya	5,6	2059,9	24,0	369,4 m.	43	10
Eron	1224,4	1636,0	142,9	133,6	13	11
Daniya	8,1	1555,3	0,0	192,4 m.	42	12
Shveysariya	2,4	1244,4	1,0	518,1 m.	45	13
Hindiston	1290,6	919,6	96,5	71,3	12	14
Bangladesh	606,3	881,3	93,8	145,4	16	15
Turkmaniston	329,7	719,5	3,2 m.	2,2 m.	18	16
Belarus	614,3	644,9	104,2	105,0	15	17
Latviya	264,6	575,5	112,8	2,2 m.	21	18
BAA	252,4	364,7	0,0	144,5	22	19
Ispaniya	47,1	273,1	31,5 m.	5,8 m.	33	20







## JIZZAX VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2023- yil yanvar-may)

	Hajm ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>427927,7</b>	<b>233,6</b>	<b>100,0</b>
Jizzax sh.	114497,9	241,6	26,8
<i>hududlar:</i>			
Arnasoy	1753,9	40,0	0,4
Baxmal	3098,6	339,5	0,7
G'allaorol	224719,9	383,8	52,5
Sharof Rashidov	3138,0	53,1	0,7
Do'stlik	824,5	20,7	0,2
Zomin	7907,3	57,8	1,8
Zarbdor	1376,6	34,1	0,3
Zafarobod	1875,9	60,9	0,4
Mirzacho'l	469,9	117,1	0,1
Paxtakor	1971,2	224,1	0,5
Forish	66062,9	167,4	15,4
Yangiobod	231,2	44,5	0,1

**Eng yuqori hajm,**  
ming AQSH dollari



**Eng quyi hajm,**  
ming AQSH dollari



Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni G'allaorol **52,5** % bilan **224719,9** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Yangiobod **0,1** % bilan **231,2** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



## MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI



Viloyatda investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2023- yil yanvar-may oyida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalar hajmi **294035,4** ming AQSH dollarini tashkil etib, 2023- yilning shu davriga nisbatan **2,2** martani tashkil etdi va importning umumiy hajmidagi ulushi **68,7** % ga yetdi.



### MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2023- yil yanvar-may)




2023- yil yanvar-may oyida mashina va transport asbob-uskunalar importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **162818,5** ming AQSH dollariga oshdi. Ushbu tovarlarni Jizzax viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi Koreya Respublikasi – **75554,1** ming AQSH dollari (**36,9** %), XXR – **70069,1** ming AQSH dollari (**34,2** %) va Chexiya – **31941,0** ming AQSH dollari (**15,6** %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



## SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI




2023- yil yanvar-may oyida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi **10217,3** ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **60,0** % ni tashkil etdi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi **2,4** % ni tashkil etdi.



### SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2023- yil yanvar-may, ulushi, % da)



Sanoat mahsulotlari importi asosan yigirilgan ip, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (**4730,3** ming AQSH dollari), cho'yan yoki legirlanmagan po'lat (**2285,9** ming AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (**766,2** ming AQSH dollari) va rangli metallar (**621,2** ming AQSH dollari) boshqalardan tashkil topgan.